



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR 2020-yil yanvar-mart

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami 7 352,7 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi. 2019 - yilning mos davriga nisbatan 96,8 % ni tashkil qildi. Ularning 53,4 % yoki 3 924,9 mlrd. so`m miqdorida korxona va tashkilot, aholi mablag`i hisobidan o`zlashtirilgan bo`lsa jalb qilingan mablag`lar hisobidan 46,6 % yoki 3 427,8 mlrd. so`m o`zlashtirildi.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar

7 352,7 mlrd. so`m.

O`sish sur`ati 96,8 %

Markazlashgan

1 178,0 mlrd. so`m

O`sish sur`ati 187,0 %

Markazlashmagan

6 174,7 mlrd. so`m

O`sish sur`ati 88,6 %

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 % punktga ko'payib, o'sish sur'ati 187,0 % ni yoki 1 178,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




MARKAZLASHGAN INVESTITSIYALAR HISOBIDAN




ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar - 6 174,7 mlrd. so`m o`sish sur`ati 88,6 % ni tashkil etdi.



MARKAZLASHMAGAN INVESTITSIYALAR HISOBIDAN




ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan korxona mablag'i - 3 626,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarga nisbatan 49,3 % ni tashkil etdi. Aholi mablag'i - 298,5 mlrd. so'm (4,1 %).

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

(jamiga nisbatan, % da)



ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan - 1 194,1 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarining 16,2 % ni tashkil etib, o'sish sur'ati 53,8 % ga yetdi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar - 1 055,7 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 14,4 %, o'sish sur'ati 96,3 %), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 562,4 mlrd. so`m (8 martaga o'sish), Respublika byudjeti - 523,9 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 7,1 %, o'sish sur'ati 104,9 %), Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi - 16,7 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 0,2 %, o'sish sur'ati 76,5 %) hamda tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan esa - 75,0 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 1,0 %, o'sish sur'ati 179,7 %) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.


MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO`YICHA

ASOSIY KAPITALGA O`ZLASHTRILGAN INVESTITSIYALAR

	Mlrd. so`m	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Jami	7352,7	96,8	100
Davlat byujeti	523,9	104,9	7,1
Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	16,7	76,5	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	75	179,7	1
O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	562,4	8 p	7,6
Korxona mablag`lari	3626,4	116,8	49,3
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	1194,1	53,8	16,3
To`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	1055,7	96,3	14,4
Aholi mablag`lari	298,5	53,1	4,1


**TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA
INVESTITSIYALARING O'SISH SUR'ATI**

(% da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 106,8 % Shayxontohur tumanida kuzatildi. Shuningdek, Chilonzor tumanida 100,4 % ni, Yakkasaroy tumanida 97,7 % ni tashkil qildi. Bu asosan ushbu hududlarda zamonaviy uylarning qurilishi bilan bog'liq.

**TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**
(jamiga nisbatan % da)




- Bektemir ● Mirzo Ulug'bek ● Mirobod ● Olmazor ● Sergeli
- Uchtepa ● Chilonzor ● Shayxontohur ● Yunusobod ● Yakkasaroy
- Yashnabad

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'yicha Shayxontohur tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,5 % to'g'ri keldi.

Shunungdek, mos ravishda Mirobod va Yunusobod tumanlarida 13,6 % dan, Mirzo Ulug'bek tumani 10,6 % ni, Chilonzor tumani 8,6 % ni tashkil etdi. Eng kam o'zlashtirgan investitsiyalar Bektemir hamda Sirg'ali tumanida 3,5 % va 5,3 % kuzatildi.


**ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARING
TEXNOLOGIK TARKIBI**
(jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha - 2 569,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar - 4 329,9 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 452,9 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

TUMANLAR KESIMIDA TEXNOLOGIK TARKIBI

(jamiga nisbatan, % da)




Qurilish-montaj ishlari.

Mashinalar, uskunalar, inventarlar.

Boshqa xarajatlar.


**ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARING TAKROR
ISHLAB CHIQARISH TARKIBI**
(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi - 2 524,9 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 34,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar - 2 127,4 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 28,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 36,8 %, ya`ni - 2 700,4 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga to'g'ri keldi.

**TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA
INVESTITSIYALARING TAKROR ISHLAB CHIQARISH TARKIBI**
(jamiga nisbatan %, da)




- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish
- Boshqalar

Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Chilonzor tumanida kuzatilib, 63,9 % ni tashkil etdi.

Mos ravishda Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Bektemir tumanida kuzatilib, 41,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, jami investitsiyalar ulushi eng past ko`rsatkich Uchtepa tumanida kuzatilib 14,2 % ni tashkil etdi.

**ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARING
IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA TARKIBI**
(jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda sosiy kapitalga investitsiyalar - 2 202,3 mlrd. so'm o'zlashtirilib yoki jami investitsiyalarga nisbatan 30,0 % ni tashkil qildi.

Mos ravishda metallurgiya - 740,8 mlrd. so'm (yoki 10,1 %).

Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish - 323,6 mlrd. so'm (yoki 4,4 %).


Boshqa metall bo'limgan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish - 212,2 mlrd. so'm (yoki 2,9 %).

ASOSIY KAPITALGA XORIJIIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR

Mlrd.so`m

	Jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiya	Kredit		Investitsiya	Kredit
Тошкент шаҳар	1 618,1	669,8	948,3	898,5	512,7	385,9
Bektemir	38,7	38,7	0,0	36,7	36,7	0,0
Mirzo Ulug'bek	138,7	138,7	0,0	4,1	4,1	0,0
Mirobod	77,8	4,9	72,9	77,8	4,9	72,9
Olmazor	55,3	40,4	14,9	42,0	39,4	2,6
Sergeli	3,6	3,6	0,0	3,4	3,4	0,0
Uchtepa	92,7	29,2	63,5	27,6	27,6	0,0
Chilonzor	215,9	0,2	215,7	187,6	0,0	187,6
Shayxontohur	555,5	228,5	327,0	228,3	228,3	0,0
Yunusobod	196,2	64,7	131,5	64,3	64,3	0,0
Yakkasaroy	71,8	71,4	0,4	62,1	61,7	0,4
Yashnobod	171,9	49,5	122,4	164,7	42,3	122,4

**Tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
(jamiga nisbatan % da)**



**TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA FOYDALANISHGA
TOPSHIRILGAN UY-JOYLAR**
(ming kv.m.)



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 113,5 ming kv.m, bo`lgan 490 ta turar-joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar-joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`p qismi Olmazor tumanida ishga tushirilgan bo`lib, 17,4 ming kv.m va shahar bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,3 % ni tashkil etdi. Keyingi o`rinlarni Sergeli tumani egallagan bo`lib, shahar bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,5 ming kv.m va 13,7 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi Investitsiya
va qurilish statistikasi bo'limi
2020-yil yanvar-mart**

**Nashr uchun mas'ul: Sh. Samiyev
Aloqa telefoni: (071) 230-88-18**

**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi TMB
Toshkent sh., Amir Temur shoh
ko`chasi, 11 uy**